

## QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTIDA START UP TASHABBUSLAR HAMDA ISHLAB CHIQUVCHI BIRLASHMALARINI QO'LLAB QUVVATLASH

<sup>1</sup>Turayeva Gulizahro

Guliston Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi,

<sup>2</sup>Ismoilova Muyassar

Guliston Davlat Universiteti magistri,

<sup>3</sup>Mamasoliyeva CHAROS,

<sup>4</sup>Nuraliyeva Parizod,

<sup>5</sup>Nuriddinova Muslima,

<sup>6</sup>Oqbo'tayev Otaniyoz,

<sup>7</sup>Turg'unov Bekzod,

<sup>8</sup>Xudoynazarova Nilufar

Guliston Davlat Universiteti talabalari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7457735>

**Annotatsiya:** Olimlarning taxminlariga ko'ra, 2050-yilga borib Yer sayyorasi aholisi 9,6 milliardga yetib, ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun bugungiga nisbatan 70 foiz ko'p mahsulotlar kerak bo'lar ekan. Ammo, ekologik vaziyatning yomonlashishi, energiya vositalarining qimmatlashuvi va yer unumdorligining pasayib ketishi talab darajasidagi oziq-ovqat ishlab chiqarishga jiddiy to'siq bo'lishi ham ta'kidlanmoqda. Bu muammolarni dehqonchilik faoliyatini o'zgacha usullar asosida boshqarish, xususan, sohaga narsalar interneti konsepsiyasi kabi zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlar kiritish, bir so'z bilan aytganda, «aqli» qishloq xo'jaligi orqali hal etish mumkin. Hozirgi kunda IT-texnologiyalar yer maydonlarida asosan don ekinlari yetishtirishda faol qo'llanilyapti va bu «aniq dehqonchilik» nomi bilan atalyapti.

**Kalit so'zlar:** Startup, Innovatsiya, Aqli qishloq xo'jaligi, Intensiv bog'lar, eksport-import, shartnoma, klasterlar

**Kirish.** Rivojlangan davlatlardagi fermer xo'jaliklari IT-texnologiyalar va innovatsiyalarni o'z sohalariga aktiv targ'ib qilib kelishmoqda. Bu - turli datchiklar, sun'iy yo'ldoshlardan olinadigan ma'lumotlar va mobil ilovalardir. Ular yordamida urug'larni ekish, sug'orish, chopiq qilish va aniq bir daladagi hosilni yig'ib olish uchun eng qulay vaqt aniqlanadi. Texnologiyalar yetkazib berishning optimal marshrutini tanlash yoki meva va sabzavotlarning chirib ketishining oldini olish maqsadida omborlardagi haroratni kuzatib borishni ta'minlaydi. Ular yordamida fermerlar xaridorlar bilan bevosita muloqotni yo'lga qo'yadilar, yangi bozorlarga chiqadilar va oldindan buyurtmalar oladilar. Aytaylik, fermerlik harakati bilan shug'ullanib kelayotgan dehqon uzoq

yillardan beri bodring o'stirib keladi, mahsulotini eksportchilarga ulgurji narxda sotadi va yangi mavsumga tayyorgarlik ko'rishni boshlaydi. Datchiklar va mobil ilova yordamida u keyingi yil qaysi qishloq xo'jalik mahsulotiga talab ko'proq bo'lishini aniqlashi va aynan shu mahsulotni o'z dalasida o'stirishi mumkin.

Endilikda mamlakatimizda Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida start up tashabbuslar hamda ishlab chiqaruvchi birlashmalarini qo'llab quvvatlash uchun bir qancha startaplar va yangi loyihalar bo'yicha tanlovlar o'tkazilmoqda xususan bu til 2022 yilda Qishloq xo'jaligi bo'yicha : 2022-yilning eng yaxshi 8 ta startap loyihalari ma'lum bo'ldi.

Bular asosan qishloq xo'jaligini IT texnologiyalarga moslashtirish bo'lib, aqlli qishloq xo'jaligini rivojlantirish.



Startup 2022-yilning eng qiziqarli va innovatsion qishloq xo'jaligi startaplari ro'yxatini e'lon qildi. Aytish joizki, quyida sanab o'tilgan startaplar rasmiy reytingga ega emas. Ro'yxat shunchaki ma'lumot olish maqsadida taqdim qilinmoqda.

### **1. Farmspeak texnologiyasi (Nigeriya)**

Bugungi kunda, qishloq xo'jaligi sanoati, xususan dehqonchilik jarayonini avtomatlashtiradigan startaplar ko'paymoqda. Farmspeak Technology ana shunday agrotex startapi bo'lib, fermerlarga o'z ekinlarini smartfonlari orqali osongina kuzatish imkonini beradi. Bundan tashqari, ularning Penkeep qurilmasi chorva qo'rg'onlaridagi harorat va havo sifati kabilarni kuzatib boradi.

### **2. Mootral (Shveysariya)**

Qishloq xo'jaligi startapi Mootral kompaniyalar va hukumatlar uchun issiqxona gazlari (IG) chiqindilarini, shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasida antibiotiklar

kabi dori vositalaridan foydalanishni kamaytirish uchun innovatsion yechimlarni ishlab chiqadi.

Ularning asosiy ozuqa texnologiyasi Mootral Ruminant chorva mollarining issiqxona gazlarini sezilarli darajada kamaytiradigan tabiiy ozuqa qo‘shimchasidir.

### **3. Augmenta (Gretsiya)**

Augmenta – bu agrotex startapi bo‘lib, qishloq xo‘jaligi dalalarini aniq va to‘g‘ri urug‘lantirishga mo‘ljallangan. Ularning «Field Analyzer» qurilmasi o‘g‘it olish vaqtini va ekinlar miqdorini nazorat qilish uchun dala uskunalariga ulanadi. Fermerlar Augmenta‘ning boshqaruv paneli yordamida jarayonni kuzatish imkoniga ega bo‘ladi.



### **4. Root AI (AQSh)**

Sanoatni o‘zgartiradigan yana bir innovatsion agrotex kompaniyasi – Root AI. Ularning sun‘iy intellekt ilovalari fermer xo‘jaliklariga o‘z ekinlari hamda mahsulotlarini kuzatishda yordam beradi. Xususan, kompaniyaning aqlli qurilmasi mahsulotning qachon pishganini ayta oladi va terimchilarni qachon yig‘ish kerakligi haqida ogohlantiradi. Shuningdek, hozirda ishlab chiqish jarayonidagi kelajak roboti Virgo barcha turdagi meva va sabzavotlarni chaqqonlik bilan yig‘a olishi bashorat qilinmoqda.

### **5. Agriledger (Buyuk Britaniya)**

Agriledger qishloq xo‘jaligi sanoatini ta‘minot zanjiri darajasida rivojlantirmoqchi. Ularning asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligini yaxshi tomonga o‘zgartirish uchun texnologiyadan foydalanishdir va buni shaffof hisobotlar orqali amalga oshirishni nazarda tutishmoqda. Bunda kompaniyaning ma‘lumotlar bazasidan aksiyadorlardan tortib fermerlargacha – hamma foydalanishi mumkin.

### **6. Ninjacart (Hindiston)**

Ninjacart yanada barqaror ta‘minot zanjirini yaratish yo‘lida harakat qilmoqda. Ayni paytda startap har kuni 60 tonnaga yaqin mahsulotni u manzildan bu

manzilga ko'chiradi, bu esa oziq-ovqat chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirdi. Qolaversa, fermerlarning o'z mahsulotlarini iste'molchilarga tezroq yetkazishda chakana sotuvchilar, restoranlar va boshqalar bilan ham bevosita bog'laydi.

### 7. Big Wheelbarrow (AQSh)

Xuddi Ninjacart singari, Big Wheelbarrow ham yirik chakana sotuvchilarni mahalliy fermerlar bilan bog'lagan. Texasda joylashgan ushbu qishloq xo'jaligi kompaniyasi ta'minot zanjirini avtomatlashtirish va samarali yetkazib berish, shu tariqa vaqtni ham, chiqindilarni ham kamaytirish uchun eng zamonaviy dasturiy ta'minot tizimidan foydalanadi

### 8. Crofarm (Hindiston)



Crofarm – bu iste'molchilar talabidan kelib chiqib fermer xo'jaligidan mahsulotlarni yig'ib olishga mo'ljallangan startap. U o'z daromadini asosan komissiyalar orqali oladi. Tarmog'ida 10 000 dan ortiq fermerlarni birlashtirishga ulgurgan. Crofarm iste'molchiga mahalliy fermer xo'jaligi mahsulotini 12 soatdan kamroq muddatda yetkazib beradi.

**Xulosa:** Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bugungi kunda raqamli ishlarni va texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiyot ishida kerakli sifat o'zgarishlariga erishish mumkin. yangi texnologiyalarning keng tarqalishi haqida gapirishga juda erta. Biroq, bozor tahlilchilarining fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligida raqamli inqilob yaqinlashmoqda va uning muhim voqealaridan biri uchuvchisiz transport vositalari sohasiga kiradi. Ushbu mashinalar dunyoning ko'plab

mamlakatlari uchun dolzarb bo'lgan qishloq joylaridagi ishchi kuchining etishmasligi muammosini hal qilish uchun mo'ljallangan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://aniq.uz>
2. <https://uzkimyoimpeks.uz/en/news/made-in-uzbekistan>
3. <https://www.uzdaily.uz/ru/post/45013>
4. R. X.ERGASHEV, SH.SH. FAYZIYEVA S.N.XAMRAYEVA “QISHLOQ XO’JALIGI IQTISODIYOTI” TOSHKENT – 2018.
5. A.BURXONOV “QISHLOQ XO’JALIGI IQTISODIYOTI” TOSHKENT – 2021.
6. GULIZAHRO, T., NIGORA, S., DILAFRUZ, A., & AZAMAT, Z. (2022). QISHLOQ XO’JALIGIDA AGRASANOAT VA MUSTAQIL SANOAT TARMOQLARINING TUZILMASI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 203-206.
7. Каххоровна, Т.Г., Мусурманович, У.Дж., и Джумабекович, М.Т. (2022). ФАКТОРЫ СНИЖЕНИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ В РАЗВИТИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ЭКОНОМИКИ. Господарка и инновации., 21, 184-187.